

Uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash monitoringini olib borish va sifatini nazorat qilish bo'limi Davlat test markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasining tarkibiy qismi bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 293-sonli qarori, hamda mazkur qaror bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi to'g'risida Nizom" asosida amalga oshiradi.

Bo'limning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida hamda Davlat test markazi zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash monitoringini olib borish va sifatini nazorat qilishdan iborat.

Bo'limning vazifalari quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifati va o'quv jarayoni samaradorligini xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

ta'lim va o'qitish sifatini, test baholari va reyting ballarini xolisonaligini tekshirishni tashkil etish va nazorat qilishni ta'minlash;

kadrlar tayyorlash sifati monitoringi tizimini ishlab chiqish, uni takomillashtirish va amaliyotga joriy etishni tashkil etish;

zamonaviy axborot, kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalarga asoslangan holda kadrlar tayyorlash sifati monitoringi tizimini uzluksiz ta'limning barcha turlarini qamrab olgan yagona axborot makoni tizimi sifatida ishlab chiqishni ta'minlash;

boshqarma bo'limlari bilan hamkorlikda uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash monitoringini olib borish va sifatini nazorat qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlar va uslubiy asoslari (nizom, tartib, yo'riqnoma, mezon, shakl, jadval, uslubiy tavsiyanoma, dasturlar)ni ishlab chiqishni tashkil etish;

respublika uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim muassasalarini monitoring tizimi bilan qamrab olish, kadrlar tayyorlash sifati to'g'risida muntazam ma'lumotlar olish, ma'lumotlar bazalariga to'plash, ularga ishlov va izoh berish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish va foydalanish uchun hisobotlar tayyorlash;

ta'lim muassasalaridan olingan ma'lumotlarning tahlili asosida respublika uzluksiz ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorgarligi sifati va bilim darajasini umumiy holatini aniqlash hamda ijobiy tajribalarni ommalashtirish;

hulosalar asosida tahliliy ma'lumotnomalar tayyorlab, Vazirlar Mahkamasi, ta'limni boshqaruv organlari, iste'molchilar va keng jamoatchilikni uzluksiz ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash sifati bo'yicha to'liq va o'z vaqtida ishonchli axborot bilan ta'minlash;

monitoringni olib borish va kadrlar tayyorlash sifati nazorati natijalarini respublika davriy matbuoti sahifalari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

Bo'lim tomonidan tayyorlanayotgan kadrlar bilim sifatini oshirish, ta'lim berish sifatini oshirish, ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini izlash va amalga oshirish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 29 oktyabrdagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimiga izchil o'tishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 473-sonli qaroriga binoan Davlat test markazi, Xalq ta'limi vazirligi va O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazining 2008 yil 22 apreldagi 01-128/QQ-son, 16-son, va 14/QQ-sonli qarori bilan tasdiqlangan hamda 2008 yil 5 mayda Adliya vazirligida 1804-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Umumiy o'rta ta'lim maktablari 11 sinflari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi darajasi va sifati monitoringini o'tkazish yo'riqnomasi" asosida 11-sinflar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi va sifati monitoringi har yili o'tkazib kelindi.

Monitoring jarayonida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha ta'lim tayyorgarligi darajasi va sifati hamda ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilib, mavjud kamchiliklar va ularning kelib chiqish sabablari aniqlandi.

Ushbu tahliliy ma'lumotlar uzluksiz ta'lim tizimidagi kadrlar tayyorlash sifati bo'yicha to'liq va o'z vaqtida ishonchli axborot bilan ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi, ta'limni boshqaruv organlari, iste'molchilar va keng jamoatchilik e'tibori uchun respublika davriy matbuoti sahifalari va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.